

**O‘BEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
BOSHLANG‘ICH TA’LIM FAKULTETI**

“HIMOYAGA RUXSAT ETILSIN”
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani,
prof., A.Xazratkulov _____
“ _____ ” 2023- yil

BEKTEMIROVA SEVINCH ZAFAR QIZI ning
BOSHLANG‘ICH TA’LIM TEXNOLOGIYA DARSLARIDA
O‘QUVCHILARNING AMALIY FAOLIYATIDA KASBGA QIZIQTIRISH
TEXNOLOGIYASI
mavzusidagi
bakalavr akademik darajasini olish uchun bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy
ish” yo‘nalishining IV bosqich, 401-guruh
talabasi Bektemirova Sevinch Zafar qizi
Ilmiy rahbar: PhD dosent G.Abduraimova

Taqrizchi: _____

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILSIN”

“Boshlang‘ich ta’limda matematika va uni o‘qitish metodikasi”
kafedra mudiri, p.f.n., dotsent X.Sanakulov

_____ 2023-yil

Toshkent-2023

REJA:

KIRISH

I BOB. O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHNING

PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinf Texnologiya darslarida kasb va hunarga yo'naltirish nazariy asoslari

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasb-hunarga yo'naltirishning hozirgi holati

Birinchi bob xulosa

II BOB. BOSHLANG'ICH TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA TANLASHGA YO'NALTIRISH METODIKASI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirishda va kasb-hunarga yo'naltirish shakllari

2.2. Texnologiya darslarida kasbga yo'naltirish usullari

Ikkinchi bob xulosa

III BOB. O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA AJDODLARIMIZ TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

3.1. O'rta asr mutaffakkirlarining asarlarida kasb-hunar o'rganish muammosining yoritilishi

Uchunchi bob xulosa

UMUMIY XULOSA VA TAVSIYALAR FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ILOVA

Kirish.

Muammoning dolzarbligi. Mustaqil, huquqiy demokratik, ma'naviy bar-kamol fuqarolik jamiyati qurish – davlatimizning ustivor siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimiz **Shavkat Mirziyoyev** tomonidan qabul qilingan **“Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risida”** gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni buning yorqin ifodasidir. Demak, ideal jamiyat qurishda biz yoshlarning o'rne beqiyosdir. Shu sababli, o'quvchilarni boshlang'ich sinfdanoq kasblarni to'g'ri tanlay olishga yo'naltirishimiz lozim. O'quvchi yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish nafaqat mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib qolmay, balki barcha ijtimoiy institut (maktab, oila va keng jamoatchilik) larning ham tarbiyaviy vazifasi hisoblanadi. Yoshlarni kasbga yo'llash ishi mehnat resurslarini mamlakat xalq xo'jaligida oqilona taqsimlashga, yoshlarga hayot yo'lini tanlashga sezilarli yordam berishiga qaratilgan. Kasb tanlash tizimini takomillashtirishga, uni bir maromda harakat qiluvchi organizmga aylantirishga ehtiyoj juda katta.¹

Bugungi kunda yoshlarimiz uchun kasbni to'g'ri tanlay olish katta qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini amalga oshirishda bir qancha muammolarni bartaraf etishimizga to'g'ri keladi. Bizning vazifamiz kelajagimiz bo'lgan yoshlarni kasb-hunarga, ijtimoiy-iqtisodiy bilimga ega bo'lgan, bozor sharoitini biladigan har tomonlama tushunadigan, ma'lumotli yigit-qizlarni tayyorlash. Ongli ravishda kasb tanlash uchun o'quvchilarning bir qator kasblarni yetarlicha bilishi, bilganda ham ularning o'ziga jalb qiladigan tomonlarini emas, balki qiyinchiliklarini ham yaxshi bilishi, o'zining shaxsiy sifatlariga ko'ra tanlagan kasbini muvaffaqiyatli egallay olishi va keying ish jarayonida o'z malakasini takomillashtirish talab qilinadi. Hozirgi vaqtga qadar kasbga yo'naltirish ishlari yetarlicha saviyada olib borilmasligi, ularni kasb-hunar turlari bo'yicha aniq ma'lumotga ega emasligiga olib keladi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan savol-javob qilinganda shu narsa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan “Yoshlarga oida Davlat siyosati” qonuni 2016-yil, 16-sentabrdagi O'RQ-361 sonli

aniqlandiki, ularning faqat 72%i ommaviy kasblarni bilishi to'g'risida ta'kidlangan. Albatta, bu ma'lumotlar har davrda va har xil mintaqalarda ob'yektiv holda turlicha bo'ladi. Hozirgi kunda bozor munosabatlarini va uzluksiz ta'limga o'tish munosabati bilan maktab yoshlarini ongli ravishda kasb tanlashga, jamiyat uchun foydali va zarur bo'lgan muayyan mehnat faoliyatiga tayyorlashda yana ham katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ularning har biriga alohida-alohida yondashishni talab etadi. Bunda shaxsning temperamenti, irodasi, diqqati, belgilangan maqsadga erishishda qat'iylik, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, intizomlilik, topshirilgan ishni bajarishga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini e'tiborga olish zarur. Bundan tashqari, kasbga yo'naltirish davomida kasbni tanlash sabablarini, kasbning ijtimoiy ahamiyatini, qiziqish va imkoniyatini, kasbga tayyorgarlik darajasini, oila an'alarini va yaqinlarining maslahatini hisobga olish zarur.

Bugungi kunda **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Besh tashabbus”² loyihasining ishlash prinsipi ham bevosita yoshlarning kasb tanlash borasidagi ishlarini qamrab oladi.** Jumladan, ushbu loyihaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning har bir yo'nalishida yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar mavjudligini, ularni bo'sh vaqtdan unumli foydalanish, bevosita kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish masalasi turganligini ko'ramiz. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini tashkil etish, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish natijasida yoshlarda kasb-hunar egallashga layoqat hosil bo'ladi deb o'ylayman.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini tashkil etish, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish” masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishidan, 2019-yil, 19-mart.

O'quvchilarda kasbga oid qiziqishlarning paydo bo'lishi va rivojlanishidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan maktab, mahalla va ota-onalarning birgalikdagi samarali hamkorligiga bog'liqdir. Turli kasb egalari bilan suhbatlar o'tkazish yo'li orqali o'quvchilar kasb turlari bilan batafsil tanishtirib boriladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, kasb tanlashda maktabning ota-onalar va mahalla bilan mustahkam aloqasi katta ahamiyatga ega. Bizning maqsadimiz har bir avlodni barkamol va o'z kasbining raqobatbardosh ustasi etib tayyorlashdan iboratdir. Buning uchun o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab, kasblar, ularning turlari, vazifalari to'g'risida ma'lumotlar berib borilmog'i va o'zlariga yoqqan kasbga qat'iy qiziqish hosil qilish uchun zaruriy ma'lumotlar bilan tanishtirilmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Maktab, oila va mahalla" Konsepsiyasi, Prezident Farmonlari va O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarorlari ta'lim muassasalari oldida kasb tanlash bo'yicha vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Yosh avlodni kasb-hunar ta'limiga doir fikrlarni uzoq o'tmishda Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rahyon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi allomalar o'z asarlarida meros qilib qoldirganlar.

Yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlash muammosini ishlab chiqishga N.K.Krupskaya, A.V.Lunacharskiy, S.A.Makarenko, S.T.Shatskiy, P.P.Blonskiy va boshqalar katta hissa qo'shgan.

Kasb tanlash maummosi va nazariyasi va amaliyotining turli jihatlari P.R.Atutov, S.N.Chistyakova, R.X.Jo'rayev, A.D.Sazanov, P.T.Magzumov, N.Shodiyev, I.T.Chorievning ishlarida aks ettirilgan. O'quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashga tayyorlashni amalga oshirish masalalari A.I.Vorobyov, I.G.Karimov, O.A.Otajonov, K.Davlatov, G.A.Buyanova va boshqalarning dissertatsiyalarida ham muhokama qilingan.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ga muvofiq mamlakatimizda uzluksiz ta’lim shakllanganligi munosabati bilan o’quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashning shakl va metodlarini yanada shakllantirish dolzarb bo’lib qolmoqda. Jumladan, yoshlarni o’qitilishi va tarbiyalash ishlarini tubdan yaxshilash masalasi ilgari surilgan. Dasturda: “Inson, uning har tomonlama uyg’un kamol topishi va farovonligi. Shaxs manfaatlarini ro’yobga chiqarishning sharoitlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorini, andazalarini o’zgartirishi Respublikda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi ko’zgudir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarining yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O’zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridir”³, - deb ko’rsatilgan

Umumta’lim maktablarida kasb tanlash ishining holati fan o’qituvchilari, sinf rahbarlari tomonidan o’z ishini qay darajada olib borayotganligiga bog’liq.

Bitiruv malakviy ishning maqsadi: Boshlang’ich sinf o’quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirishning samarali usullarini aniqlash.

Bitiruv malakviy ishning obykti: Boshlang’ich sinf texnologiya darslarini o’qitish orqali o’quvchilarni kasb tanlash ishiga tayyorlash jarayoni

Bitiruv malakviy ishning predmeti: Boshlang’ich sinf o’quvchilarini kasbga yo’naltirishga tayyorlashning mazmun, shakl, metod va vositalari

Bitiruv malakviy ishning vazifalari:

-Boshlang’ich sinf o’quvchilarini kasb-hunarga yo’naltirish muammosining o’rganilganlik darajasini aniqlash;

-Kasb-hunarga yo’naltirishning nazariy shart-sharoitlarini o’rganish

-Boshlang’ich sinflarda Texnologiya darslarini mavzu nuqtayi nazaridan o’rganish;

³“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., “Sharq”, 1997-yil

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb tablash ishiga tayyorlash muammosiga bag'ishlangan ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;

-Boshlang'ich sing o'quvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlashning mazmuni, shakl, metod va vositalarini o'tganish va tahlil qilish;

-Mumtoz merosimizning kasbiy jihatdan yo'naltirilgan asarlarini tahlil qilish;

Bitiruv malakabiy ishning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan Qarorlar.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi: bitiruv malakaviy ishikirish, uch bob, beshta paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I BOB. O'QUVCHILARNI MEHNAT VA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Boshlang'ich sinf Texnologiya darslarida kasb va hunarga yo'naltirish nazariy asoslari

Ma'lumki, umumta'lim fanlarining barchasida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi darslari ta'lim-tarbiyaning bu jihatini amalga oshirishda asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilarning individual fazilat va sifatini shakllantirish va o'quvchilarga kasbiy maslahat, kasbiy va iqtisodiy tarbiya berish, pedagogik-psixologik tashhis ishlarini amalda tadbiq etish quyidagi uch bosqichdan iborat:

1-bosqich: Darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, kasb-hunarga yo'llash ishlarini takomillashtirishdan.

2-bosqich: O'quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, ehtiyojlariga qarab darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish, o'quvchilarni darsdan tashqari ish-larga tanlovlar asosida qabul qilish, individual va zamonaviy metodlardan foy-dalanish.

3-bosqich: Shaxs sifatini tahlil qilish va tashhis qilish metodikasini amalga oshirish.

Texnologiya fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlarning vazifalari quyida-gicha:

- mehnat ta'limida o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirish va kengaytirish;
- unumli mehnatga asoslangan ijodiy faoliyatga o'quvchilarni jalb etish;
- o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarish asoslari haqidagi tasavvuslarini kengaytirish;
- o'quvchilarni xalq xo'jaligining zamonaviy ehtiyojlari asosida kasb-hunar tanlashga tayyorlash;
- mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish;

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llar ekanmiz, ularda kasb-hunarlar haqida to'g'ri tasavvur berishimiz kerak. O'quvchilarni qiziqish va kasbga bo'lgan mo-yilliklariga qarab rivojlantiruvchi shakllardan foydalanish o'smirlarda "Men kim bo'lishni xohlayman" degan savolga javoblarini onglarida shakllantirish zarur. Aksariyat o'quvchilarning kasb tanlashdagi asosiy xatoliklari u yoki bu kasb ki-shisiga munosabat kasbga bo'lgan munosabat bilan bir xil deb qaraydilar. O'quv fanining kasb bilan bir xil deb tushunilishi, kasbning tashqi jihatiga qiziqish, mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarga, ommaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurlarning mavjudligi o'quvchilarning yana bir kamchiliklaridir. Ko'p hollarda o'quvchilar o'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera olmaydilar, u yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar-pisand qilmaydilar, do'stlarining ta'siri bilan kasb tanlash, ta-sodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash hollari uchraydi.⁴

O'quvchilarga kasb so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntirib berish foyda-dan holi emas. Kasb – maxsus tayyorgarlik na tajriba natijasida ma'lum bir so-hada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuasidir.

Dunyoda kasblar, hunarlar ko'p. Odamlar azaldan biror kasb-kor, halol va foydali ish bilan shug'ullanib, daromadlari evaziga hayotiy ehtiyojlarini qondirishga, yaxshi yashashga intiladilar. Shu tariqa oila ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmay, jamiyat rivojiga ham o'z hissalarini qo'shadilar. Qolaversa, har kim istagan kasbi bilan shug'ullanish huquqiga ega. Faqat u shug'ullanmochi bo'lgan faoliyat turi qonun bilan ta'qiqlanmagan bo'lsa bas.

Kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi – bu umumta'lim maktablarining o'quvchi va bitiruvchilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunarni egallashga tayyorlash va yo'naltirish.

⁴Toshkent Moliya instituti "Kasbiy pedagogika" o'quv-uslubiy majmua 451b.

Kasb-hunar egallashning usullarini aniqlash, kasb-hunarga yo'naltirish ish-lari samaradorligini oshirishning asosiy omillari, bu maktab direktori va maktab kasbga yo'naltiruvchi bilan birgalikda 1 – 9 sinflarda kasbga yo'naltirish bos- qichlarini, mashg'ulotlarni yuqori saviyada o'tkazishni qanday yo'lga qo'yishidir. Umumta'lim maktabida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan bu masalani hal etishda sinf rahbari, fan o'qituvchilari ota-onalar, tashkilotlar bilan aloqada bo'ladilar. Ular kasbga doir turli xil tadbirlarni o'tkazadilar. Bu ishda ularga voyaga yet- maganlar bilan ishlash komissiyasi, Yoshlar Ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi yaqin-dan yordam beradilar.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashda tarbiya vositalari samaradorligini oshirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- kasbga doir xonani jihozlash;
- kasbga doir tahvilot va targ'ibot ishlarini olib borish;
- plakatlar, axborot texnologiyalari bilan tanishtirish;
- kasblar olami elektron axborot tizimi bilan ishlash;
- kasb-hunar tanlashning tegishli motivlarini shakllantirish;

Kasbiy faoliyat ilmiy yondashuvlar, xulosalardan foydalanib kasbiy rivoj-lanish orqali amalga oshirilishi mumkin. Har bir mehnat bosqichida mehnat fao- liyatini samarali boshqarishda xizmat qiluvchi psixologik yangilanishlarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari sifatida kasbiy tajriba, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalar e'tirof etilgan kasbiy qobiliyat sintezining komp-leksi, funksional tarzda faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlar ekan. Shaxsning kasbiy kamolotini individual-psixologik xususiyatlariga alohida urg'u beriladi.

Kasbiy faoliyatning bir qator bosqichlardan o'tish har bir insonning e'ti-borga molik jihati hisoblanadi. Tadqiqotlarning aniqlanishicha, yaxshi mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi sifatlar bo'lishi, ya'ni o'zini kamol toptirishga intilish, muammoni qo'ya olishi, ishga qiziqishi bilan ichki tayyorgarlik, amaliy targ'ibot- ga ega bo'lishi psixologik individual asosga

egallik muhimdir. Kasbiy tajribaning ahamiyati e'tirof etgan holda F.S.Ismailova bir qator ijobiy mulohazalarni il-gari surganligi holda K.K.Platonov tajribani bilim, ko'nikma va malakalar yi-g'indisi sifatida qaradi. Psixologik test pedagogic faoliyatning psixologik diag-nostikasiga asoslanadi.

Aholini ratsional va samarali bandligini ta'minlashda O'zbekiston Respub-likasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunla-ri, Xalqaro mehnat tashkilotining nizomlari, loyihalari va takliflari, bir qator boshqa hujjatlar hamda muammo va kamchiliklar ko'zga tashlanib qolmoqda. Jumladan:

1. Maktablarda mehnat va kasbga yo'naltirish ishlari.
2. Ishlab chiqarish korxonalari bilan aloqa
3. Umumta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish xonalari va axborot Hamda kadrlar ta'minoti
4. Xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi tarkibiy va kasbiy malaka o'zgarishlari.

Kasb-hunarga yo'naltirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodning ongli ravishda qobi-liyati, moyilligi, qiziqishi, jamiyatning kadriga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, mehnat qilish sohasini tanlashidan iborat.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan, mehnatni oqilona taqsimlash va foydalanish hisobiga mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish va shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalashga bog'liq.

Kasb-hunarga yo'naltirish tamoyillari: iqtisodiy rivojlantirish, qiziqishlarini muvofiqlashtirish, psixologik-pedagogik tashhis qilish ilmiy asoslanganligi, fuqarolarning kasb-hunarga yo'naltirishda teng huquqliligi, umumta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish xizmatlari majburiyligi va bepulligi, kasbiy tashhislarning obyektivligi va maxfiyligi, tavsiyaviy xarakterda ekanligi, hodimlarning kasbiy axloq qoidalariga rioya qilishlari.

Kasb-hunarga yo'naltirish obyekti: 1 – 9 sinf o'quvchilari, o'rta maxsus kasb- hunar ta'limi o'quvchilari, Oliy ta'lim, ish qobiliyati cheklanganlar, ishdan bo'- shashni kutayotganlar, band bo'lmagan aholi guruhlari.

Kasbga yo'naltirish ishlarining mohiyati va mazmuni – bu har bir individ-ning o'ziga xos xususiyatlari bilan mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga ol-gan holda, o'z kasbiy o'rnini topishi uchun shaxsga ta'sir etishning ilmiy asos- langan shakl, usul va vositalar tizimidir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

Kasbga yo'naltirish, asosan, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, kasbiy tanlov va ara;ash kasbiy moslashishdan iborat.⁵

1.Kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

1. Kasb-hunarga yo'naltirishni bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali kasbga yo'naltirish.
2. Kasb-hunar tizimini boshqarish

Yuqorida ta'kidlangan ishlar tashkiliy-huquqiy ta'minot, kadrlar bilan ta'minlash, ilmiy-metodik va axborot ta'minoti, moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot asosida amalga oshiradi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini kasb tanlashga yo'naltirishda “Kasblar alifbosi”, “Kim bo'lsam ekan?”, “Kasblar olamiga sayohat”, “Men orzu qilgan kasb”, “Kasbiy moslashish”, “Kasbiy o'sish”, va “Shaxsning o'zini-o'zi rivojlantirishi” kabi mavzular haqida televideniya ko'rsatuvlar uyushtirish psixologik jihatdan ham kuchli ta'sir etadi.

Kasb-hunar egallash ishlarining amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:

-kasb-hunar egallashga yo'llash orqali o'quvchilarda ma'naviyatni shakllantirish;

⁵ O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., “Sharq”, 1997-yil.

- tarixiy-badiiy asarlar orqali milliy ma'naviytimizning qadimiy ildizlari, noyob va betakror namunalari orqali o'quvchilarga tarbiya berish;
- zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirish orqali o'quvchilarga bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida targ'ibot ishlarini olib borish;
- texnologiya (manbada "mehnat ta'limi" deb yuritilgan) fanidan darsdan tashqari tadbirlar o'tkazish orqali o'quvchilarni Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar ruhida tarbiyalash;

1.2.Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasb-hunarga yo'naltirishning hozirgi holati

O'zbekiston Respublikasida uzoq yillar davomida yoshlarni mehnat va kasb-hunarga tayyorlash, unumli mehnat jarayoniga jalb etish, kasb-hunarlar o'rgatish xalq xo'jaligining turli sohalarida mehnat qilish, yo'naltirishning turli masalalari bilan pedagog olimlar shug'ullanmoqdalar. Ular o'z tadqiqot natijalarini nomzodlik dissertatsiyalari, monografiyalari o'quv-metodik qo'llanma tarzida bayon qilib kelmoqdalar.

R.X.Jo'rayev, N.Shodiev, E.T.Choriyev, N.S.Sayidaxmedov, N.A.Muslimov D.Razzoqov, A.V.Soy va boshqalar o'zlarining chop ettirgan ishlarida yoshlarni mehnat va kasb ta'limi tayyorgarligining turli sohalarini yoritdilar.

Professor R.D.Jurayev o'zining "Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va shaxsning kasbiy o'zligini anglash muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga qilgan doklatida "Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi, eng avvalo, individga o'z qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlarini to'liq anglash, xohish-istaklarni to'liq amalga oshirishning vosita va usullarini to'g'ri belgilash, hamda mustaqil qarorga kelishi uchun imkoniyatlar va zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat" degan muhim vazifalar haqida so'z yuritdi.

Professor A.I.Vorobyovning "Maktabda kasb tanlashga yo'llash ishining forma va metodlari" nomli qo'llanmasida kasb tanlashga yo'llash yuzasidan

olib boriladigan ishlarni barcha forma va metodlari, ya'ni dars mashg'ulotlari, to'garak ishlari, korxonalarga ekskursiyalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar, kasb tanlash haqidagi ma'ruzalar va hokazolar birga qo'shib olib borilganligi muvaffaqiyatlarga erishish mumkinligi alohida ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o'zgarishlarning samarasi, yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan

munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog'liqdir. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida** gi PF-4947-son farmonining **"Ijtimoiy sohani rivojlantirish"** ustuvor yo'nalishda ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Bugungi zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo'yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan farzandlarimizning hissasi beqiyos ekanini ta'kidlash lozim.⁶

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat o'quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o'quvchilarni kasbga yo'nal-tiradi. O'quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo'yadi, uni orzu qiladi, o'sha kasb egasi sifatida o'zini tasavvur qiladi. Boshlang'ich ta'lim

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida gi PF-4947-son farmonidan

o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan ishlarning barcha shakl va metodlari o'quvchilarning maqsadli ravishda kasb tanlashlariga xizmat qilishi lozimdir.⁷

Maktabda kasb-hunarda yo'naltirish ishlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy amaliy mashg'ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o'yin, mustaqil fikrlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali kasb tanlash layoqatiga ega bo'lishmaydi, biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz

bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarining kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin.

Quyidagi barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor bular:

- mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;
- mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;
- o'z ishini rejalashtira olish va nazorat qila bilish;
- ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ish batartib va intizomli bo'lish;
- sabr-toqatlilik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
- materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilar.

Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini o'quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish

⁷ "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 5-son, 2014-yil, may

yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin.

Kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasi- ga, ya'ni aqli, qiziqishi, har xil kasblar bo'yicha bilimi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotlarga ega bo'lishi kerak.

Shaxsni kasbga yo'naltirish maxsus ilmiy-amaliy faoliyat orqali amalga oshiriladi, o'quvchilarning inson sifatida shakllanish bosqichlarida shaxs va jamiyat ya'ni oila yagona bir tizim sifatida qaraladi, o'tish davrida bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablari inobatga olinadi.⁸

Kasbni to'g'ri tanlash har bir o'sib kelayotgan avlodning ob'ektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning

o'zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko'ra ko'proq o'z ifodasini topadi va namoyon bo'ladi. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari- ning taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ic sinfdayoq shakllanar ekan. O'qituvchining vazifasi – o'quvchining qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarini rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.⁹

Boshlang'ich sinflarda Texnologiya darslarining asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash

⁸ "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 11-son, 2016-yil, noyabr

⁹ "Boshlang'ich ta'lim" jurnali 11-son, 2017-yil, noyabr

istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham Texnologiya darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan.

O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin. Ba'zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo'ladi, ko'pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O'qituvchining boladagi iste'dod bishonalarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko'maklashishi muhimdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbga yo'naltirish ishi – o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinfdan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yodam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik – shaxs yetukligining eng muhim ko'rsatkishlaridan biridir.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonini yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

- kasbga yo'naltirishda yakka tartibda ishlashga e'tibor qaratish;
- mavzu yuzasidan davra suhbatlarini tashkil etish;
- turli kasblarga oid audio-video materiallar bilan tanishtirish;
- sinfdan tashqari ishlarni kasb tanlashga yo'naltirish;
- turli soha mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish;
- kasblar burchagini tashkil etish va shu mavzuda ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish;¹⁰

Kasbga yo'naltirish haqida gap borar ekan, bevosita to'garaklar faoliyatiga ham to'xtalib o'tishimiz lozim. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar to'garak-larida rahbar bilan o'quvchilarning didaktik o'zaro hamkorligi o'yin faoliyati shaklida tashkil qilinadi. Konstruktorlik to'garaklarida o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar bilan ishlashda bu hamkorlik vujudga kelgan amaliy

¹⁰ "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 2018-yi, 12-son dekabr

vazifalarni (masalan, texnika to'garaklarida texnik vazifalarni bajarishda, qandaydir texnik qurilmani, model, maket, tajriba namunasini ishlab chiqish va tayyorlashda) bosqichma-bosqich hal qilish jarayonida tashkil etiladi.

Hozirgi kunda maktablar va maktabdan tashqari muassasalar faoliyatida o'quvchilar texnik ijodkorligi texnologiyalarining quyidagi turlari vujudga kelgan

1. Tayyorlov texnika to'garaklari (kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun). Ularda o'quvchilar jonli va oson shaklda texnika elementlari hamda eng oddiy texnologik jarayonlar bilan tanishadilar, qog'oz, plastmassa, metal va boshqa materiallarga ishlov berish bo'yicha olgan boshlang'ich ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'quvchilar texnik o'yinchoqlar, mashina, mexanizmlarning soda modellarini, eng oddiy avtomatik qurilmalar, o'quv ko'rgazlami qo'llanmalar, maktab hamda uy-ro'zg'or buyumlari va hokazolarni tayyorlaydilar.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun tayyorlov texnika to'garaklari orasida ko'pincha boshlang'ich texnik modellashtirish to'garaklari, elektrlashtirilgan o'yinchoqlar to'garaklari, transport texnikasini boshlang'ich modellashtirish to'garaklari tashkil qilinmoqda.

2. Predmet (fan-texnika) to'garaklari: fizika, fizika-texnika, kimyo, kimyo-texnologiya, agrokimyo, astronomiya va boshqa to'garaklar. Bunday to'garaklar o'quvchilarning maktab o'quv rejasidagi turli predmetlar bo'yicha olgan bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash, ta'lim xonalarini to'ldirish uchun asbob-uskunalar yasash va shu asosda o'quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirish mqsadlarida tashkil qilinadi.

3. Sport-texnika to'garaklari maktablarda, ko'proq maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat ko'rsatadi. Bular aviamodel, raketa-kosmik modellashtirish, avtomobil modelchiligi, kema modelchiligi, temir yo'l modelchiligi, radio boshqarish, suv-motor va boshqa to'garaklar.

Mazkur to'garaklarda o'quvchilar modellarni va ishlaydigan texnikani konstruksiyalash va tayyorlash bilan shug'ullanadilar, keyin esa ana shu modellar bilan sportning texnik turlari bo'yicha modelchi-sportchilarning musobaqalarida qatnashadilar.

O'quvchilar sport-texnika to'garaklarida tegishli texnika tarmog'ining tarixi, uning xalq xo'jaligida va mamlakatimiz mudofaasida qo'llanishi bilan, Vatanimizdagi havo yo'llari transportlari samolyotlar, avtomobillar, suv yo'llari transporti, radio apparati va boshqa texnikalar bo'yicha buyuk konstruktorlar texnik tafakkurining xususiyatlari bilan tanishadilar.

Yuqoridagi to'garaklardan tashqari metallchilar, duradgor konstruktorlar, texnolog ixtirochilar, shuningdek, elektrotexnika, radiotexnika, electron avtomatika, texnika, kibernetika, rabototexnika, kichik o'lchamli qishloq xo'jalik texnikasini konstruksiyalash, texnikani jihozlash va o'lchov texnikasi klublari keng tarqalgan.

O'quvchilarning ana shu to'garaklardagi faoliyati, eng avvalo, texnikani o'rganish bilan, o'rganilgan mashinalarda ishlashni osonlashtiradigan turli ish moslamalarini yaratish, mashinalardagi har xil tizimlarning ishlash prinsipi va tuzilishini tushunishga yordam beradigan ko'rsatmali qo'llanmalarni tayyorlash bilan bog'liqdir.

Maktab texnika to'garaklari tarmog'ining rivojlanishi va shu to'garaklarning yuksak saviyada ishlashi ko'pincha maktablarda texnika yoki sport texnika, o'quvchilar ilmiy jamiyatlarining klublari tashkil topishiga olib keladi, o'quvchi- larning mehnat birlashmalari ishlarning mexanizatsiyalashuvi darajasini oshiradi.

Yangi texnik yechimlarni izlash metodlarini o'zlashtirishga juda qiziqadigan o'quvchilar ko'pincha mahalliy texnik ijodkorlik markazlaridagi mashg'ulotlarga qatnashadilar.

Bunday ishlarni tashkil qilish va o'tkazishda mahalliy uyushmalarda hamda yosh texniklar markazlarida shug'ullanayotgan to'garak qatnashchilari o'qituvchi- ga katta yordam beradi.

Ma'lumki, dars o'quvchilarga tarbiya va ta'lim berishning asosiy shaklidir. Dars qanchalik jozibali, uning shakli va mazmuni qanchalik yorqin bo'lsa, o'quvchilar predmetga shunchalik qiziqadilar, ularda ko'proq savollar tug'iladi. Predmet bo'yicha dars mazmunli o'tilsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarni ham sifatli o'tish samaradorligini oshiradi.

Tajribali texnologiya fani o'qituvchilarining fikricha, o'quvchining qiziqishlari yo'nalishida, uning o'qishdan tashqari faoliyati mazmunida bolalar va o'smirlar ijtimoiy tarbiyasining natijalari yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun bu faoliyatni tashkil etish imkoniyati qanchalik keng bo'lsa, o'quvchidagi qiziqish va qobiliyat-ni shunchalik barvaqt aniqlash, ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatish, o'quvchiga, o'quvchiga o'z ishini, o'zining kelajakdagi ijodkorligini topishda yordam berish mumkin.

To'garakdagi ishlar o'quvchilarga biror ijodkorlikdagi mehnatning mazmu- nini, ommaviy ishchi ijodkorliklarining eng qiziqarli jihatlarini bilib olishlarida yordam berishi zarur. Shuning uchun maktabdagi to'garaklarning faoliyatini belgilashda mahalliy ishlab chiqarishning yo'nalishini hisobga olish kerak.

Rahbar to'garak jamoasini uyushtirish bilan birga to'garakda ijodiy ishlab chiqiladigan va tayyorlanadigan ob'ektlarni belgilaydi, to'garak ishini moddiy jihatdan ta'minlash imkoniyatlarini, shuningdek, bo'lajak texnik qurilmaning murakkab detallarini tayyorlashda hamda mashalatchilarni jalb qilishda amaliy yordam ko'rsatish uchun baza, korxonaning imkoniyatlaridan foydalanish miqyosini aniqlaydi.

Texnologiya fani o'qituvchisi boshqaradigan to'garakdagi o'quvchilar mehnatining ob'ektlarini belgilashda asosiy diqqat-e'tibor maktab ustaxonalarini ayrim texnik qurilmalar, texnologik uskunalar, mehnat birlashmalaridagi mehnatning kichik mexanizatsiya vositalari bilan ta'minlashga, maktab ustaxonalaridagi mavjud uskunalarni ta'mirlash va takomillashtirishda, o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishida yordam

beradigan har xil ko'satmali qo'llanmalarni, elektrlashtirilgan stendlarni, bilishga doir o'yinlarni ishlab chiqishga qaratiladi.

Birinchi bob xulosa

O'quvchilarning to'garakdagi ish uchun ob'ektlar tanlashdan oldin o'quvchilarning o'zlarini tayyorlash, ularda kishilar uchun kerakli buyumlarni ishlab chiqish hamda yasashga qiziqish va ishtiyoq uyg'otish kerak.

Ishning muvaffaqiyati o'qituvchi, to'garak rahbari, to'garak qatnashchilari orasida vazifalarning taqsimlanishini qanchalik aniq tashkil etgani, ularning individual va yosh xususiyatlarini, maktab ustaxonalari sharoitida tavsiya qilingan

ishni bajarishga amaliy tayyorlik darajasini hisobga olgani bilan ham belgilana- di. Boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish jarayonida asosan mahalliy kasblar bilan tanishtirish ko'zda tutiladi.

Davlat ta'lim standartida ham boshlang'ich sinflarda darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodkorliklar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqligi ko'zda tutilgan.

II BOB.BOSHLANG'ICH TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA TANLASHGA YO'NALTIRISH METODIKASI

2.1.Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirishda va kasb-hunarga yo'naltirish shakllari

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga fan-texnika yutuqlarini soha-ga tadbiq etish asosida erishish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sohasida olib brilayotgan islohotlar, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va unda ko'rsatilganidek fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro faol aloqasini ta'minlashni taqazo etadi.

Ilmiy texnik taraqqiyot natjalarini ishlab chiqarish sohasida kirib borish ko'p jihatdan ta'lim saviyasiga, kadrlar salohiyatiga, ayniqsa, yoshlarga, ularning faolligiga, o'z kasblarini naqadar egallaganliklari darajasiga bog'liqdir. Hozirgi kunda yoshlarni kasb va hunarga yo'naltirishdan maqsad o'sib kelayotgan bar- kamol avlodni kasblar bo'yicha ongli ravishda tanlashga tayyorlash.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga yo'llash yoshlarning kasbni erkin va mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu shaxsning ma'naviy, aqliy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyasi, ya'ni birga ta'lim muassasalariga o'quv-tarbiya jarayoni uzviylikda amalga oshiriladi.

Kasb tanlashga yo'llash tushunchasi o'quvchi yoshlarni ongli, to'g'ri va erkin kasb tanlashga, kasblar, hunarlarning mehnat yo'lini to'g'ri belgilashga qaratilgan muayyan pedagogik ishni ifoda etadi.

Kasbga yo'naltirish – o'quvchining o'z ehtiyojini oqilona cheklaydigan shaxs sifatida barkamol kamolotga ketishining pedagogik jarayoni bo'lib, nafaqat pedagogik tashqi ijtimoiy bog'liq bo'lgan tafakkuri va xatti-harakatlarini ongli ravishda o'z-o'zini boshqaruvchidir.

Kasb va kasbga yo'naltirishning nazariy shart-sharoitlari deganda, kasb va hunarga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalari va tasavvurlar yig'indisidir. Bu yoshlarning shaxsiy qiziqishlari, layoqati va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Jumladan, o'quvchi yoshlarni kasbga pedagogik-psixologik yo'naltirish masala-lari qomusiy olimlarimizning o'z asarlarida ham keltirilgan. Abu Ali Ibn Sino buyuk qomusiy olim sifatida barcha hosidalarining mohiyatini ilmiy jihatdan ochib beishga harakat qilgan Sharq mutafakkirlaridan biri. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, u bolaning fe'l-atvori va tasavvurini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanilishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga qattiq tan jazosidan ko'ra, ularni shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma'qulligini ta'kidlab o'tgan.¹¹

Olimning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart deydi. Yosh yigit biror hunar o'rgansa, uni hayotga tadbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lishi kerakligini aytadi. O'spirin hunar egallashi bilan birga nafaqat axloqiy xislar balki xarakterining irodaviy xislatlarini ham tarkib topa boshlaydi. O'spirinlarda hunar egallash orqali sabr-bardoshlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi. Ibn Sino har biro damning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berilishi kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlargagina egadir, unga o'xshagan kimsalar kamdan-kam bo'ladi. Allomaning falsafiy psixologik qarashlari hozirgi davrda ham ijtimoiy hayotimizda o'z ahamiyatiga ega bo'lib, shaxslararo munosabatlar etikasiga munosib hissa bo'lib qo'shiladi.

¹¹ Abu Ali Ibn Sino "Donishnoma". – Dushanbe: "Ifron", 1990. -388 b.

Muammoning muhimligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda hamko'plab mutaxassislar: pedagoglar, psixologlar, shifokorlar, iqtisodchilar, sotsiologlar va turli xil xilma-xil sohalarda ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etishi uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi, albatta. Kasb va kasbga yo'naltirish ishlari quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Kasbiy axborot – yoshlarni zamonaviy ishlab chiqarish turlari va kasblari, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari kasb bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari mehnat faoliyati jarayonida kasbiy malakaviy o'sish va o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Kasbiy maslahat – yoshlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari hamda jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasbiy yo'lini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam ko'rsatish;

Kasbiy tanlash – pedagogik-psixologik, psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o'zining psixologik-fiziologik xususiyatlarga ko'proq mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsiyalar berish;

Kasbiy saralash – insonning ma'lum kasbga tegishli me'yoriy talablarga mos ravishda kasbiy loyqlik darajasini aniqlash.

Mehnat va kasb-hunar ta'limida o'quvchilarni kasb va hunarga yo'naltirishning quyidagi usullarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish;
2. Kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlarni o'qishni tavsiya etish;
3. Har bir kasb haqida maxsus darslar o'tish;
4. Ishlab chiqarish korxonalari, firma, fan, maorif, madaniyat, san'at muassa-salariga sayohatlar tashkil etish;

5. Mehnat ilg'orlari bilan, ular erishgan yutuqlari haqida suhbatlar o'tkazish
6. Mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha multimedialar ko'rsatish;
7. O'quvchilarni turli xil to'garaklarga jalb etish;
8. Kasblar o'yinini tashkil etish;
9. Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish texnologiyalari bilan muntazam tanishtirib berish;

O'quvchlarni kasb tanlashga yo'naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni quydagilar:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi – I bosqich
2. Boshlang'ich kichik yoshdagi (1 – 4 sinflar) – II bosqich
3. O'rta yoshdagi (5 – 7sinflar) – III bosqich
4. Katta yoshdagi (8 – 9 sinflar) – IV bosqich

O'quvchilar kasbiy tayyorgarligini aniqlash mezoni (besh ballik) ko'rsatkich va o'lchovlari:

Birinchi bosqich – Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda (katta guruh) mehnat bilan band bo'ladigan insonlarga, ularning mashg'ulotlariga, shuningdek, qo'llari- dan keladigan faoliyat turlari bo'yicha dastlabki mehnat ko'nikmalarini ijobiy, xissiy ta'sirchan shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich – Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilishga oid va o'yin ko'rinishdagi ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbqiq qilish orqali, mehnatga hurmat, mehnat kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib bori- shini hamda ommaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich – O'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni ulardagi qiziqish qobiliyat, layoqat va shaxs sifatida jamiyatdagi o'z o'rnini topishdagi hamda ma'naviy-moddiy qadriyatning izlanuvchan-sinchkov ko'rinishlarini shakllanti- rishdan iborat.

To'rtinchi bosqich – O'quvchilarda kasbiy o'zlikni anglashni shakllantirish davri ya'ni o'quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma'noga

egalligini tushunib yetishi, jamiyat oldidagi burchi, javobgarlik xislatlarini shakllantirish. Shu sababdan ham mutaxassislarning har biri to'la aniq kasbga yo'naltirish sohasidagi o'z faoliyatida o'zlariga ma'lum bo'lgan metodlarga, muammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadi, hamda kasbga yo'naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yo'naltirish sohasidagi bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlash lozim bo'lgan maktabning roli har qachongidan ko'ra o'sdi.

Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni taybiyalash, umuminsoniy qadriyatni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash hozirgi kundagi maktablarimizning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Pedagoglarning oldida turgan muhim qo'yilgan bolib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilarda aniq bo'lgan qiziqishlarini yanada takomillashtirish;
- uni kasb tanlash darajasiga yetkazish;
- ko'p qirrali qiziqishga ega bo'lgan o'quvchilarda o'ziga ko'proq yoqqan sohani, to'garakni tanlashga amaliy yordam berish;
- o'quvchilarda mehnat qiluvchi kishilarga nisbatan hurmat xislatlarini tarbiyalab berish;
- o'quvchilarning o'ziga xos qiziqishlarini e'tiborga olgan holda ularni sekin-asta jamiyat ijtimoiy mehnatiga jalb qilib borish;
- kasbiy ma'lumotlarni yetarlicha bilib borish;
- inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni har tomonlama tejash xislatlarini tarbiyalash;
- o'quvchilarning o'zi qiziqadigan mehnat ta'limi yo'nalishiga jalb qilish va egallagan iqtidosiy bilimlarni amalda qo'llashlariga erishish;

- o'quvchilarda mehnat va kasb tanlash darslariga qiziqish uyg'otish va uni amalga oshirishda hal qiluvchi ta'sirni yuksak mahorat bilan amalga oshirishdan iborat va bu jarayonni to'g'ri tashki etilganda shaxsning bo'l-g'usi kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy va ilmiy texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o'quv-chilarini kasb va kasbga yo'naltirishning muhimligi ancha oshdi.

O'quvchilarni to'g'ri va erkin tanlashga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. To'g'ri kasb tanlash insonning kelajagini hayot tarzini belgilashda katta ahamiyatga ega. Har bir shaxs kasbni o'z qiziqishi, qobiliyati nuqati nazaridan tanlaydi.

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlashiga bog'liq.

Kasb tanlashda o'quvchilarga bir qator omillar ta'sir etadi, ular quyidagilar: qiziqish, qobiliyat, idrok, xarakter, tafakkur, bilish va erkdir. Keling endi, shu omillarga alohida-alohida to'xtalib o'tamiz.

Qiziqish – bu voqelikdagi predmetlar va hodisalarning bilish yo'nalishini belgilaydigan, biror narsaga berilish, qoniqish tuyg'usi orqali uyg'onadigan faoliyati tushuniladi.

Qobiliyat – qaysi bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga taalluqli bo'lgan va bilimlar, malakalarni egallashning tezkorligini izohlab beradigan xususiyat.

Idrok – mazkur muddatda sezgi organlarining yoki bir butun xodisalarning inson ongidan aks etishidir.

Xarakter – xatti-harakatlarning sifat jihatlarining o'ziga xosligini, mustahkam-

ligini ko'rsatib turadigan, maxsus munosabatlarni paydo bo'lish jarayonida o'zining izini qoldiradigan xususiyatlari majmuasidir.

Tafakkur – bilish, anglashning yuqori shakli bo'lib, o'zida ob'ektiv dunyodagi hodisalar bilan narsalar o'rtasidagi munosabatlarni namoyon etishdir.

Bilish – dunyo haqidagi yangi bilimlar hisobalanadigan sub'ekt va ob'ektning o'zaro ta'risini, voqelikning ruhiyatida qayta ta'sir etilishi hamda aks ettirish jarayonidir.

Erk – o'z oldiga maqsadlarni qo'yish va qabul qilish bilan, shu bilan birga, ularni hal etish, amalga oshirish yo'lida ichki va tashqi to'sqinliklarni yengib o'tishdir.

Hozirda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda pedagogik-psixologik va umumtexnik va kasb ta'limi mutaxassislari olib borayotgan ishlar salmoqli o'ringa ega. Darhaqiqat, o'quvchi yoshlarning kasbiy bilimlarini va ko'nikmalarini shakllantirish, ularga to'g'ri yo'nalish berish, kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislari, pedagog-psixolog tomonidan boshqarilib kelinmoq- da. Quyida o'qituvchilarning pedagogik-psixologik va umumkasbiy tayyorgarligi- ga to'xtalib o'tamiz:

Birinchidan, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltiruvchi va pedagog-psixologlar- ni hamda umumtexnik va kasbiy ta'lim mutaxassislarni malakasini va saviyasini oshirib borsak, ularga qayta tayyorlov o'quv kursi va seminarlar tashkil qilib amaliy yordam berib, ularning moddiy ehtiyojlarini qondirilishi;

Ikkinchidan, o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishlarini, moyilliklarini kuchaytirish maqsadida har xil kasb-hunar novatorlari bilan davra suhbatlari, bahs-munozaralar, hunarmandlar maydoniga sayohatdan foydalanganda ham mahorat bilan foydalanishi;

Uchinchidan, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda mahalla va ota-ona-larning roli juda kattadir. Buning uchun sinf rahbarlari bilan ota-onalar hamkorlikda oyda bir marta “Kasbiy maslahatlar kuni”ni tashkil etib, ular bilan turli kasb-hunarlariga tayyorlashda muammo va yechimlar davra suhbatlarini

o'tkazish;

To'rtinchidan, bir necha yillar davomida halol mehnat bilan elga tanilgan xalq hunarmandlari va mehna faxriylari bilan "Mehnat, mehnatning tagi rohat", "Mehnat – baxt keltiruvchi omil", "Kasb-u kamol, xusn-u jamol" kabi mavzularda uchrashuvlar tashkil etish;

Boshlang'ich sinflarda maktab ma'muriyati bilan birgalikda noan'anaviy sayohat daslarini tashkil etib, o'quvchilarni har xil korxona faoliyati, yo'nalishi va hayoti bilan tanishtirish, u yerda ilg'or ishchilar bilan har xil mavzularda uchrashuvlar o'tkazishlari lozim.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari psixolog va fan o'qituvchilari bilan uzviy muloqotda ish olib borishlari talabga muvofiqdir. Masalan: texnologiya darsida o'quvchi o'zi qiziqadigan yoki layoqati bor kasbini to'la namoyon eta oladi, hamda u dars davomida "Duradgorlik", "Pazandachilik va oshpazlik", "Tikuvchilik va bichuvchilik" shuningdek, matematika darsidan hisobchilik, ona tili va odobnoma darsida "o'qituvchilik" kasbiga moyilligi borligini aniqlashimiz mumkin. Ayni vaqtda shu dars muallimi sinf rahbari o'quvchiga kasb madaniyati bilan birga tashxis berib borishi kerak.

Maktab ota-onalar yig'ilishi kasb-hunar xodimlari bilan birgalikda olib borishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quvchi ota-onasi hamkorligida kasblar haqida axborot oladi va uni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Oiladagi o'zaro hamkorlik to'la holda kasbni tanlash imkoniyatini yaratib bersagina shunda o'quvchida kasb-hunarga moyilligi paydo bo'ladi.

O'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirish uzviyligi mamlakatimizdagi yangi ta'lim tizimini ishloh etishda o'z samarasini beradi. Shu bilan birga biz kelajak avlodni hayotda o'z o'znini topishga, Vatanimizning ravnaqini yanada oshirishga hissa qo'shgan bo'lamiz.

2.2.Boshlang'ich texnologiya darslarida mehnat va kasbga yo'naltirish usullari

Umumta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari darsdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligining rivojlantirish faoliyati o'zining shakli, mazmuniga ko'ra xilma-xildir. Shunday bo'lsa ham so'nggi yillar mobaynida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlandi:

3 – 4 sinflarda o'quvchilar texnik ijodkorlik bilan bog'liq mehnatga qiziqish va jamoa mehnatiga ishtiyoq uyg'otish, ana shu yoshlar guruhidagi o'quvchilarni yasama texnik o'yinchoqlar, modellar va turli jihozlarni konstruksiyalash bilan bog'liq faol texnik o'yinlar, musobaqalar va konkurslarga qatnashtirish, tabiatni muhofaza qilish faoliyatiga va tajribaviy ishlarning eng oddiy shakllariga jalb etish, bolalarda texnika, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sohalaridagi texnik havaskorlik, ijodkorlik va tajribachilikka intilishni tarbiyalash. O'quvchi- larni maktablar va maktabdan tashqari muassasalardagi texnik ijodkorlik jarayonida ommaviy ishchi ijodkorliklariga yo'naltirish.

O'quvchilarning u yoki bu turdagi amaliy faoliyatga qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirishning dastlabki pog'onasida o'qituvchi individual ish olib boradi, suhbatlashadi, adabiyotlarni tavsiya etadi, o'quvchini to'liqlantiradigan ishni muhokama qiladi, qiziqarli fan va texnika kechalarini, fa va texnika tarixidagi atoqli kunlarga bag'ishlangan kechalarni tayyorlash va hokazolar bo'yicha individual topshiriqlar beradi. Shundan keyin, o'qituvchi ana shu o'quvchilarni to'garakka birlashtiradi. Bunda ular jamoa topshiriqlarini ham bajara oladilar.

Maktabda o'quvchilarni mehnatga, mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash tizimida TEXNOLOGIYA fani alohida o'rin egallaydi. Chunki, texnologiya darslarida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarda, ularning kelajak faoliyati uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- Texnikaga va texnik mehnatga qiziqish, moyillik va qobiliyatni rivojlantirish;
- Mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish (fikrlash, diqqatni taqsimlash, ish jarayonida diqqat-e'tiborni qaratish)
- Mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish, mehnat ishlariga hurmatda bo'lish, jamiyat uchun mehnat zarurligini aniqlash;

Texnologiya fani boshqa umumta'lim predmetlaridan farqli ravishda o'ziga xos xususiyatga ega. Texnologiya fani umumta'lim tayyorgarligining tarkibiy qismi bo'lib qolishi bilan birga, u ayni vaqtda yoshlarni mehnatga tayyorlash umumiy mehnat sistemasining birinchi bosqichi hisoblanadi.

Boshlang'ich sinfning 4-sinfida o'quvchilar ancha o'zlarini anglab olishgan, biror bir kasb turiga erkin fikr bildira oladigan yoshga yetib qolishadi, endi ular bilan biror kasb haqida suhbatlashish, qiziqishlarini eshitish mumkin bo'ladi va aynan shu yosh oralig'ida Texnologiya darslarida kiritilgan mazvular asosida kasb tanlashga ishtiyoq uyg'otish mumkin.

4-sinf Texnologiya fani quyidagi bo'limlar asosida o'qitiladi:

- Qog'oz va karton bilan ishlash;
- Tabiiy va turli materiallar bilan ishlash;
- Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash;
- Badiiy qurish-yasash va texnik modellashtirish;

O'quvchilarni "Texnologiya" darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metal va metal-mas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yi-cha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarda texnik-texnologik jarayon

davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 4-sinf Texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'ekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

- texnik ob'ekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

- texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo'llay olish;

- texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;

- ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.¹²

Texnologiya fanini o'qitishda Boshlang'ich sinflarda "Iqtisod alifbosi" o'quv kursi singdirilib o'qitiladi. Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi. Shuningdek, o'quvchilarga Texnologiya fanini yo'nalishlari bo'yicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Jumladan, 4-sinf o'quvchilarni kasb-hunarni yo'naltirishga oid quyidagi kompetensiyalar haqida fikr yuritmoqchiman: **O'z-o'zini rivojlantirish**

¹² Davlat Ta'lim Standarti (DTS) 2017-yil 6-aprel, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-qaroridan

kompetensiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak, Texnologiya fanini yo'nalishlar bo'yicha chuqurroq o'rganish, yo'nalishlarni bugungi kun talabi bo'yicha o'z ixtirolarini olib kirish, har bir buyumni tayyorlashda dizayner-modelerlik kasbi bo'yicha yondosha olish, shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish – ushbu kompetensiyada bevosita dizaynerlik, ixtirochilik sohalariga bo'lgan qiziqishni uyg'otish talabi turibdi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining keying bo'limiga e'tibor beradigan bo'lsak, shaxs sifatida o'z qiziqishlariga qarab, qobiliyatlarini namoyon qila olish, ongli kasb tanlash, halollik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lish –bunda bevosita kasb tanlashga bo'lgan qiziqish uyg'otish talabi turadi.

Texnologiya darslaridagi **Ijtimoiy-faol fuqarolik kompetensiyasiga** e'tibor beradigan bo'lsak, kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash kompetensiyasi bolib, bunda o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan kasblar haqida to'laqonli ma'lumot berish, uning mazmun-mohiyatini ochib berish talabi turadi.

Texnologiya darslaridagi **Milliy va umummadaniy kompetensiyaga** e'tibor qaratadigan bo'lsak, san'at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish, san'at asarlarini tahlil qilish, xalq hunarmandchiligi yo'nalishlarida ularning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini o'rganish, asrash, an'ana va marosimlarini hurmat qilish kompetensiyasida o'quvchilarga haykaltaroshlik, rassomchilik, hunarmandchilik kasbiga qiziqsh uyg'otish, shu kasblar haqida ma'lumot berish talabi turadi.

Ikkinchi bob xulosa

Texnologiya darslaridagi Metematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasida texnika turlari va ularni qachon paydo bo'lganligini bilish kompetensiyasida o'quvchi- larni texnika faoliyatiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish talabi turadi.

Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasida o'zbek milliy naqqoshlik san'ati haqida ma'lumot bera olish, zardo'zlikda ishlatiladigan barg turlari va naqqoshlik kompozitsiyalarini chiza olish, zardo'zlik san'ati haqida tushunchaga ega bo'lish kompetensiyasida yuqorida aytib o'tganimdek san'at sohasiga oid kasblarga bo'lgan qiziqish uyg'onadi.

Qo'l mehnatiga oid bilimini umumlashtigan holda amaliy vazifalarni bajarish orqali o'z mehnat harakatlarini o'quv topshiriqlari asosida muntazam takrorlay oladi; egallagan hayotiy odov-axloq qoidalari, mehnatsevarlikka oid asosiy tushunchalarga rioya eta olish kompetensiyalarida o'quvchi bevosita o'zi tayyorlagan mehnatidan zavqlana oladi va mehnat qilishga yoki shu sohaga oid kasbni egallashga ishtiyoqi uyg'onadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan kompetensiyalar o'quvchilarni fan haqidagi egallashi mumkin bo'lgan barcha talablarni o'z ichiga oladi. Fanni o'zlashtirish natijasida o'quvchilarda turli kasb egalarining ish faoliyatiga qiziqish shakllanib, shu kasbni egallashga bo'lgan ishtiyoq paydo bo'ladi, shu sababli har bir Texnologiya fani fanga oid kompetensiyalar va tayanch kompetensiyalar asosida aniq maqsadni yo'lga qo'yish asosida darslar tashkil etiladi.

III BOB.O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA

AJDODLARIMIZ TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

3.1.O'rta asr mutafakkirlarining asarlarida kasb-hunar o'rganish muammo- sining yoritilishi

O'quvchilarni kasb-hunarga qishiqishini tarbiyalashda insoniyat mehnat faoliyati tarixini o'rgatuvchi omillarga tayanib, o'quvchilarni kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarni mehnat turlariga qiziqishini oshirish, kasb tanlash va o'zlashtirishni shakllantirib borish uchun pedagoglar zimmasiga o'quvchilarga yoshligidan boshlab ta'lim-tarbiya berish bilan birga kasb-hunarga qiziqish ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishdagi shartlarga amal qilish lozim:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasb-hunar to'g'risidagi tushunchalarni singdirish;

- O'quvchilarni yoshiga, jinsiga mos kasb-hunar tanlashga ularga pedagogik-psixologik yondashish;

- Kasb-hunarga qiziqtirishda o'quvchilarning yoshi va qobiliyatlarini xisobga olish;

- Mahalla oqsoqollari, mehnat faxriylari bilan muntazam aloqalar o'rnatish;

- Mehnat ustaxonalariga ekskursiyalar uyushtirishni tashkil etish;

- Darslarda mutafakkirlar merosidan foydalanib, kasb-hunarga oid fikrlari bilan tanishtirish;

O'zbek xalq tarbiyashunosligining o'tmishdagi mashhur mutafakkirlar, xalq maorifi arboblari va ma'rifatparvar shoirlarning, mehnat kasb-hunar to'g'risidagi qimmatli fikrlarini biz uchun ahamiyatli tomoni shundan iboratki, ulardan yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga qiziqtirishning cositasi sifatida foydalanish mumkin.

Bizga ma'lumki, o'zbek xalqining qadimiy kasb-kori, asosan, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo'lgan. Ushbu kasb-korlar yuzlab yillar davomida shakllanib, har biri o'z ichida o'nlab tarmoqlarga ajralgan va gullab yashnagan.

O'rta Osiyo mutafakkirlarining kasb-hunar, mehnatsevarlik haqidagi fikrlari bizga meros bo'lib qolgan.¹³

¹³“Mehnat va uni o'qitish metodikasi” O'quv qo'llanma. R.A.Mavlonova, H.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva Toshkent-2007

Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarda yaratilgan hadislar, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, g'azal, ruboiy, masnaviy, ertak kabi xalq og'zaki ijodi namunalari orqali insonning ta'lim-tarbiyasi va kasb-hunar o'rganishining afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risida fikrlar bizgacha yetib kelgan. Bunday yozma manbalarga zardushtiylarning ulug' asari hisoblangan, eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda yaratilgan "Avesto" da bolalar yoshligidan daraxt ko'chatini o'tqazishi, uy ro'zg'or qurollari yasashi, yerga ishlov berish kabi mehnat mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari kerakligi haqida ko'plab satrlar keltirilgan: "Zero, bu kasb sohiblari zardushtiylarni moddiy ne'matlari bilan ta'minlaydi. Bu esa hayot taraqqiyotining asosiy omilidir"¹⁴

Shuningdek, "Avesto" kitobida Sirdaryo va Amudaryo sohillarida xalqlarning kasb-kori, savdo-sotig'i, qo'shni xalqlar munosabatlari bayon qilingan. Har bir hunar egasining jamiyatda tutgan o'rni alohida qayd etilgan. Dehqonlar va chorvadorlar jamiyatning moddiy ne'matlarini yaratuvchisi sifatida ta'riflangan.

Darhaqiqat, yoshlarni mehnat jarayoniga, kasb-hunar egallashga yo'naltirish va ushbu faoliyatlarni o'zlashtirishni takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan tadqiqotimiz uchun Sharq xalqlarining boy ma'naviy merosi va qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo xalqlari VII – IX asrlardan boshlab islom diniga, uning aqidalariga rioya qiladi. Musulmonlarning eng oliy, muqaddas kitobi bo'lgan "Qur'oni Karimda"da ham inson yaxshi xulq egasi bo'lishi va halol kasb-kori evaziga oila boqib, ro'zg'or tebratishi ta'kidlab o'tilgan.¹⁵ "Qur'oni Karim"ning oyat va suralarida mo'tabar Alloh nomidan xalqni uning ahli mo'minini to'g'ri yo'lga boshlaydi. "Qur'oni Karim" ning bevosita oyatlaridan kelib chiqib, xalq orasida turli pand nasihatlar, rivoyatlar, hikoyatlar ko'rinishida hadis yaratildi. Unda, kishilarning turmush tarsi, ijtimoiy faoliyati va bir-biriga bo'lgan munosabatlarini tartibga solish to'g'risida tarbiyaviy pand nasihatlar berilgan. Buyuk muhaddis, Islom olamida yirik muhaddis alloma sifatida Imom abu Abdulloh Muhammad Ibn Imom al-Buxoriy, o'zining "Al-jome' as sahih" (Ishonarli to'plam) asarida kasb-hunar o'rganish, mehnat qilish va uning afzalligi to'g'risidagi hadislarini to'plab sharhlagan. Masalan, mazkur hadisning 14-bobida "Kishining kasbi va o'z qo'li bilan mehnat qilishi" haqidagi hadisida shunday deydi: "Mening o'z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilur, men garchi musulmon ishlari

¹⁴ Mahmudov T. "Avesto haqida". –T.: Sharq, 2000.-64 b.

¹⁵ "Qur'oni Karim". Tarjima va izohlar muallifi Alsuddin Mansur. – T, 1997.-21b

bilan band bo'lsam ham, shu kasbim orqali oilamni tebraturman", - deb yozadilar.¹⁶ "Tikuvchi haqida", "Savdo ishlar" haqida alohida e'tiborga molik boblar, hadislar keltirilgan. O'rta asr mutafakkirlari dunyoqarashi- da barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik ta'sir qilish majmuasi omillarida ikki tarkibiy qismni, ta'lim va tarbiyani ajratish, bunda tarbiyani ta'limga nisbatan ustuvorligi aksiomatik haqiqat darajasiga ko'tarilganini ko'rsatish lozim.

Buyuk allomalarning kasbiy mehnat ta'limi va tarbiyasini yosh avlod ta'lim va tarbiyasini tarkibiy qismi sifatida qaraganliklarini, uni aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya bilan birgalikda qo'shib olib borish lozimligi to'g'risida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir. Qomusiy olimlar ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda bolaning moyilligini, qobiliyatini hisobga olish zarurligining tub mohiyatini ko'rsatib berdi.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning asarlarida insonlarni ilm-ma'rifatli bo'lishga, halol mehnat qilishga, kasb-hunar egallashga hamda inson shaxsining ijodiy va bunyodkorlik kuchini va uning kamolotini, qadr-qimmatini ulug'lash- ga chorlaydi. Allomaning fikriga ko'ra "... kimki eng go'zal va foydali bo'lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o'zining istagiga va boshqa birovning istagiga muvofiq bo'lsa yoki boshqalarning xohishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan foydalidir",¹⁷ – deb aytganlar.

Ta'lim, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy faoliyat asosida, ya'ni unda o'quvchilarning kasb-hunarga bo'lgan havasini kuzatish mumkin.

Agar o'quvchi kasb-hunarga qiziqsa, ushbu qiziqish uni butunlay kasb-hunarga bog'lab qo'yadi, natijada, u kasb-hunarning chinakam oshig'I bo'lib qoladi.

Sharqning ulug' matematigi al-Xorazmiy: "Mehnat bu – bir sel, agar shu sel to'xtab qolsa, u singib ketadi", – deb fikr yuritadi.¹⁸ Olim ushbu misralarida hayotiy muhim bir haqiqatni aytadi. Ya'ni suv obi hayot, suvsiz hayot yo'q bo'lgani kabi, mehnatsiz hayot bo'lmasligini, suvning singib ketishini umrning quruq o'tib ketishiga taqqoslangan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy kishilarning baxt saodati kamoloti uning halol mehnat qilishi kasb-hunar o'rganishi deb biladi. Olimning "Geodeziya", "Minerologiya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarlarida

¹⁶ "Al jome' as sahih" Imom al-Buxoriy, 3-kitob

¹⁷ Abu Nasr Forobiy. "Fozil odamlar shahri". –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y, -222 b

¹⁸ Al-Xorazmiy "O'gitlar" asaridan.

o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb-hunarga oid qimmatli ma'lumotlar bergan. "Barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr-qimmati, uning avlod-ajdodi kim bo'lganligi bilan emas, balki uning halol mehnati bilan ulug'lanadi, buning uchun mehnat zarur, faqat aql-idrok va

mehnatning jonlanishiga kishilar hayotini belgilab beradi", – deydi.¹⁹Mutafakir- ning quyidagi hikmaltlari tahsinga loyiqdir: "Har bir insonning qadr-qimmati o'z ishini qoyil qilib bajarishda". "Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir", "Asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlamay o'z uyasida asalni yeb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydi"²⁰

Abu Rayhon Beruniy insonni halol mehnat qilishi ba kasb-hunar egallashi tufayli aql, zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o'z kasbini ardoqlashdek fazilatlarni nihoyatda qadrlaydi.

Abu Rayhon Beruniy yoshlarni kichik yoshdan boshlab qobiliyatiga qarab mehnat qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiya berish, bolani bilim va kasbga o'rgatish, oilaning diqqat markazida bo'lishini ijobiy baholaydi. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim, bilim va hunar o'rgatish bilan bog'liq holda davom ettirishni alohida ta'kidlaydi. O'sha davrda Zandona qishlog'ida bo'z to'quvchilar, Buxoro yaqinidagi katta to'qimachilik korxonasi, Samarqandda qog'oz va oyna ishlab chiqaradigan ustaxona, Toshkentda hunarmandchilikning rivojlangini ta'kidlaydi. Bu yutuqlarga ta'lim-tarbiyasiz erishib bo'lmasligi ayon. Shu o'zinda Beruniy ilm-ahillari, olimlar, pedagoglarning mehnati jamiyat uchun naqadar kerakli va zarurligini alohida uqtirgan. Qomusiy olim mehnat va hunar vorislik asosida avloddan avlodga meros bo'lib o'tishini sinchiklab tekshirgan va hunarmandchilikni yuqori baholagan. U biror bir katta va mashaqqatli mehnat talab etadigan o'rta asr hunarmandchiligida toshtaroshlar qimmatbaho toshlardan bezak, uy ro'zg'or buyumlari, xotin-qizlar uchun zeb-u ziynatlar yasash, sayqal ishlari, toshtaroshlik hunari: sangtaroshliklarni batafsil yozgan. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida hunarmand ustalarning ahvoli, shogirdlarining faoliyati, ish haqlari haqida qimmatli fikrlarini keltirgan. Jumladan, u shunday yozadi: "Basrada billurdan idish-tovoq va boshqa narsalar yasaydilar. Ish joyida belgilab, o'lchab beruvchi usta bo'lib, uning oldida billurning mayda va katta bo'laklari to'plangan. Ana shulardan chiroyli va keraklisini olib, undan eng chiroyli va yaxshi buyum yasashni o'ylab, o'lchab, belgilab chiqqan. Shundan

¹⁹Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar".1-jild. –T.: O'rta va oliy maktab, 1986. – 486 b

²⁰Abu Rayhon Beruniy. "Geodeyziya".Tanlangan asarlar.3-jild. –T.: Fan, 1982.-344b

keyin uni yasovchi hunarmandga beradi. U birinchi usta aytganidek buyumlarni yasab boshlaydi”²¹

Bu mulohazalardan ko’rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan zarur hayotiy vosita bo’lib kelgan. Ota-bobolarimiz shu o’zlari shug’ullanuvchi kasblari orqali ro’zg’or tebratib oilalarini boqishgan va o’z kasblarini sevuvchi, uni ardoqlovchi insonlar bo’lishgan. Bu kasblar asosan avloddan-avlodga meros bo’lib kelgan.

Ushbu ma’lumotlardan O’rta Osiyo hududida metallurgiya, konchilik va hunarmandchilik naqadar keng tarmoq olganini ko’rish mumkin.

Donishmand Yusuf Xos Hojibning ta’biricha: “Har bir kishi ijtimoiy hayotning faol ichtirokchisi sifatida hunar o’rganmog’i, o’z hunari bilan xalqiga, Vataniga xizmat qilishi zarur”, - deydi. Darhaqiqat, hunar o’rganishga va mehnat qilishga bo’lgan intilish har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj bo’lmog’i kerak.

Yusuf Xos Hojib o’z bolalarini foydali mehnatga o’rgatmasdan ortiqcha erkalatib bu bilan ularni kelgusida noloyiq xatti-harakatlar qilishida to’g’ridan-to’g’ri aybdor bo’ladigan ota-onalarni qattiq qoralaydi. “Kimningki o’g’il yoki qizi taltaytirib yuborilgan bo’lsa, buning uchun oxiri qattiq yig’laydi”,²² - deb ta’kidlaydi. Har biro ta-ona o’z farzandiga yoshligidan hunar o’rgatishi kerakligini qayta-qayta uqtiradi.

Ulug’ mutafakkir Mahmud Qoshg’ariy o’zining “Devoni lug’atit turk” nomli asarida: “Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so’zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o’rganib, amalga oshir”, - deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Ilm va hunar sohiblarini e’zozlaydi. Kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi. Demak, ulug’ donishmand o’zining ushbu so’zlari bilan unumli mehnat qilishni ilmni o’rganish bilan barobar qo’yadi. Kishi mehnat qilsagina, hunar o’rgansagina ilmli, aqlli kishi hisoblanadi.²³

Amir Temur mamlakatda hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik va savdoni rivojlantirishga katta e’tibor bergan. U insonlarning mehnat bilan band bo’lishiga katta e’tibor qaratgan. U o’z davlatida to’qimachilik, yog’och, tosh o’ymakorligi, gilam to’qish, spool, metal idishlar tayyorlashni yo’lga qo’yganligini sababli ommaviy ishsizlikka yo’l qo’yilmagan.

O’rta asr Sharq mutafakkirlari o’z asarlarida yoshlarni kasbiy mehnat ta’lim va tarbiyasiga juda katta ahamiyat berganlar. Ular kasb-hunar ta’limiga, tarbiyaning zaruriy tarkibiy qismi sifatida yondashganlar va uni

²¹ Abu Rayhon Beruniy “Minerologiya”. Tanlangan asarlar. M.: FA nashri, 1963. -518b

²² Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig”. – T.: Yulduzcha, 1990. – 355 b.

²³ Mahmud Koshg’ariy “Devoni lug’atit turk”, 3-jild. –T.: Fan, 1959. -260 b

aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya bilan birga olib borish zarur deb hisoblaganlar.

Ularining asarlarida qobiliyatlarini va moyilliklarini inobatga olib, jiddiy o'ylab mehnat faoliyatini tanlash to'g'risida yoshlarga qarata aytgan pand va nasihatlarni ko'rish mumkin. Jumladan, Alisher Navoiy ta'lim oluvchining individual, o'ziga xos xususiyatini hisobga olish zarurligini ta'kidlab, tabiatan teng bo'lsalar ham ammo ularga turli fazilatlar beriganlar.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham "Farhod va Shirin" dostonidagi pahlavon Farhodning ilm-hunarga qiziqishi targ'ib etiladi hamda yoshlarning bir necha hunarni egallashiga undaydi. Shuningdek, Navoiy Farhodni bir necha kasb-hunar egasi, ya'ni u sangtaroshlik, rassomlik, naqqoshlik kabi hunarlarning mukammal egallab olgan inson sifatida ulug'laydi. Ilm va hunarni egallagan, jismoniy jihatdan chiniquqan, mehnatsevar Farhod kamtarin, mazlumlariga g'amxo'r, sodfil, mard, oliyjanob bo'lib yetishadi. Navoiy Farhodni suvsiz yerlarga suv chiqargan qahramon mehnat sohasida mo'jizalar ko'rsatgan bahodir yigit sifatida ta'riflaydi, u ilm va hunarni xalq manfaati uchun ishlatishim lozim deb hisoblaydi. Farhod Shirinni qidirib Armanistonga borganda Arman yurtida tog'da kanal qazayotgan kishilarni ko'radi va "Hunarni asarbon netkumdir oxir, olib tuproqqami metgumdir oxir", - deya o'z bilimini ishga solidi, kanal qazuvchilarning mashaqqatini yengillashtiradi, hamda xalq o'rtasida katta shuhrat qozonadi.²⁴

Sharq xalqlarida "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bolaga baho berishda asosiy mezonga aylangan. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolaga pedagogik tashxis qo'yish zarur va murakkab. O'qituvchi, muallim bolaning qobiliyati, layoqati va tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda yuqorida ko'rsatilgan oddiy sharqona usullardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, O'rta Osiyolik mutafakkirlar bolaning individual qobiliyatlarini, moyilliklarini va qiziqishlarini aniqlashga katta e'tibor berganlar. Ta'lim oluvchining individual qobiliyatlari va odamning boshqa fiziologik va psixologik fazilatlarini hisobga olishni va bunda o'qituvchining tutgan o'rnining muhimligini ta'kidlagan.

Ota-bobolarimiz qadim-qadimdan yoshlarni oilada umumbashariy urf-odatlar, o'lmas sharq falsafasi, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab kelganlar. Ular asrlar davomida tilimizni, dinimizni va tilimizni o'zbek milatiga xos bo'lgan o'zligimizni ulug'lab komil insonlarni voyaga yetkazib kelgan. Ayniqsa, Sharqda mutafakkirlar tomonidan yaratilgan qator asarlar

²⁴Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni. – T.: O'qituvchi. 2001. -215 b

yoshlarni, xususan, oilada tarbiyalanib kelinayotgan o'g'il bolalarni milliy an'analar, oilaviy hayotga tarbiyalashga, barkamol inson qilib tarbiyalashda asosiy mezon, qoidalar va pandnomalar sifatida ham foydalanilgan.

Navoiy hazratlarining zamondoshi Jaloliddin Davoniy "Biro dam turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanmasligi kerak, chunki bu odam tabiatiga to'g'ri

kelmaydi va bu odam hech qachon ijobiy natijaga erisha olmaydi. Zero, har bir hunar munosib ravishda diqqat, e'tiborni va vaqtni talab qiladi" va imkoniyatiga bog'liq ravishda o'zlari o'rganauotgan kasb-hunarlarining bittasini to'g'ri tanlashi lozimligi haqida gapirib: "Odamda barcha kasb-hunarlarga qobiliyat yo'q, aksincha, har bir kishi ma'lum bir kasb-hunarga ishtiyoqi bor", – degan edi.²⁵

XV asrda yashagan yetuk alloma Xusayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai Sultoni" nomli asarining 14-fasli "Kasb-kor va savdo-tijorat odobi haqida" deb nomladi. Unda quyidagi yozublar yozilgan: "... Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb so'rasalar sakkizta deb aytgil":

- Birinchidan, o'z kasbini haromdan, shubhali mol mablag'dan pok saqlasin;
- Ikkinchidan, rizq-ro'zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shug'ullansin, kasbni mol-dunyo sarflashga sarflamasin;
- Uchinchidan, kasbni obro' olish, yaxshi nom chiqarishimning sababi deb bilish;
- To'rtinchidan, moli xarom odamlar (amaldorlar, poraxo'rlar, qaroqchilar, o'g'rilar, qimorbozlar, kazzob do'kondorlar) bilan muomila qilmasin;
- Beshinchidan, o'z hurmatiga bee'tiborlik, xato nuqsonlarga, ayb ishlarga yo'l qo'ymaslik, har xil iflosliklar, bulg'anishlarga yo'l qo'ymas;
- Oltinchidan, insof chizig'idan tashqariga chiqmasin, mol matoni tanimaydigan odamlar bilan muomila qilsin;
- Yettinchidan, agar tarozi axlidan bo'lsa, toshdan olib qolmasin va ortiq bermasin;
- Sakkizinchidan, gazlama o'lchab oluvchilar axlidan bo'lsa, o'ziga ko'p olib qolib, boshqalarga kam bermasin, chunki barokat to'g'riligi va jamiyatning insof yuzasidan baholi qudrat kun kechirishidir.²⁶

Yuqorida bayon qilinganlaridan ko'rinadiki, alloma hunarmand kishilardan, insofli, sofdil bo'lishlari barobarida boshqalarga o'rnak bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi. Ya'ni odamlarning, hunarmandlarning axloqiy fazilatlarini hurmat qilishga hamda ulardan o'rnak olishga da'vat qiladi.

²⁵Jaloliddin Davoniy. "Jalod shikast" asari. M.: Fan nashri, 1963. -112 b

²⁶Xusayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai Sultoni". –T.: 1958. 253 b

Darhaqiqat, Koshifiyning yoshlarga kasb-hunarni yaratish orqali ularni jamiyatda halol mehnat qilishga undagan fikrlari hozirgi kunimizda ham asqotadi. Chunki, boy tarixga, o'tmishga ega bo'lgan xalqimizni mehnatsiz, kasb-hunarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'lumki, Sharq xalqlarining ma'naviy merosi xilma-xil ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo'lib, mavzu jihatidan bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Ularning asarlari mazmunidan kelib chiqadigan fikrlar nafaqat yoshlarni kasb-hunar o'rgatishga, ro'zg'or tebratishga, oilaga tayyorlash hamda ularning tarbiyasi, oila muammolari, balki davlat ahamiyatidagi qator axloqiy, ma'rifiy, ijtimoiy muammolarini ham hal etishda muhim rol o'ynaydi.

Jaloliddin Davoniyning "Axloqi Jaloliy" asarida esa, "... bola tarbiyasi bilan shug'ullanish nozik ish ekani, kishi tarbiyasi borasida juda ehtiyot bo'lishi, xatoga yo'l qo'ymaslik lozimligini alohida uqtiradi. Bola qalbi xuddi naqsh solingan taxtaga o'xshaydi va suratlarni osonlikcha qabul qiladi", - deydi Davoniy. Davoniy oilada o'g'il bolaning barkamol inson qilib oilaning yetakchisi sifatida tarbiyalash uchun, avvalo, kasb-hunarga o'rgatish lozimligini ham alohida ta'kidlaydi. Inson kasb-hunarni egallashga, takomillashtirishga intilish bilan jamiyatga foyda keltiradi deyish bilan u insonni qiladigan, uni ulug'laydigan obro-e'tiborini ko'taradigan mehnat ekanligini ta'kidlab o'tadi. Davoniyning fikricha: "Har bir inson biron bir kasb-hunarni egallashi nafaqat jamiyat, balki oilada ota-onasining o'zining obro'sini oshirishga katta yordam beradi",- degan fikrni ilgari suradi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy, madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi milliy an'analar asosidagi tarbiya jarayonlari, farzand kamoloti, oilada onaning farzandlar oldida namuna ko'rsata oladigan muomala munosabatlari, insoniy fazilatlarning shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar Sharq xalqlari xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining uzviy bog'liqligi asosida tarkib topgan ilmiy madaniy meros ekanligini ko'ramiz.

Chunonchi, o'zbek xalqining og'zaki ijodi va eposlarida oilada o'g'il bolalarni milliy an'analar ruhida oilaviy hayotga tayyorlashda keltirilgan

mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga sadoqat, do'stlik, adolarlik, mehnatsevarlik, hamfikrlik, orastalik, go'zallik, oqillik, e'tiqod, halol va pok yashash kabi insoniy fazilatlar ulug'langan va tarbiya jarayonida ular ongiga singdirilib borilgan. Bu voqeiylikni biz "Alpomish", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" kabi qator o'zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko'rsatishimiz mumkin.

Sharq mutafakkirlari ma'naviy merosi, nafaqat oilada, balki barcha tarbiyaviy jarayonlarda yosh avlod tarbiyasini yaxshilashda milliy o'ziga xoslikni ta'minlashda sharqona tarbiya usullarini tiklashda, eng asosiysi, ularni oilada milliy an'analar ruhida, turli xildagi o'zlari yoqtirgan kasblari yo'lida, oilaviy hayotga tayyorlashda, ota-onalar va pedagoglarga dasturi amal sifatida xizmat qiladi.

Abu Ali Ibn Sino ham bolalarning kasb-hunarga qobiliyati va qiziqishini aniqlashning muhimligini alohida ta'kidlagan. U shunday degan: "Har bir odamni o'zining qiziqishi va layoqati, iste'dodiga qarab o'qitish kerak, aks holda ta'lim va tarbiya ko'zlangan natijani bermaydi". Murabbiy bolaning ta'limga, biror bir hunar va san'atga bo'lgan intilishini aniqlashi lozim, chunki ularga ega bo'lgan- dan so'nggina u o'zida yashash vositalari bilan ta'minlay oladi.

XX arning yetuk ma'rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniyning 1913-yilda yozilgan "Tukiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy pedagogik jihatdan tushuntirish berilgan. Olim ta'lim-tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikni o'rni, ularning o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi, ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bo'g'liqligini ta'kidlaydi.

Uchunchi bob Xulosa

Sharq mutafakkirlari ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Qadimiy an'analar- mizga binoan, hunarmand va kosib, me'mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to'quvchi va novvoy ustoz shogird an'alarini hamon davom ettirib kelmoqda. Dono xalqimizda "Ustozidan o'tmagan shogird – har maqomga yo'rg'alar", "Hunarli kishi xor bo'lmaydi", "Ustoz otangdek ulug' singari maqol va iboralarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo'lib ulg'ayishini orzu qilganlar.

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma'rifatparvar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Axmad Donish, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlarida Markaziy Osiyoda

Yashayotgan xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi tarbiya jarayonining milliy psixologik xususiyatlari, ota-onalarning farzandlar oldidagi burchi va vazifalari, oilaning turmush tarsi, tarbiyaviy muhiti va boshqalar

haqida qimmatli fikrlar mavjud. Jumladan, Sharq mutafakkirlari Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”i, Kaykovusning “Qobusnoma”si, Shayx Sa’diyning “Guliston”, “Bo’ston”, Abduraxmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Hayrat-ul abror”, Xusayn Voiz Koshifiyning “Axloqi muhsiniy”, Jaloliddin Devoniyning “Axloqi Jaloliy” kabi asarlari o’zbek milliy axloqiy ma’naviyatini, qadriyatlarini yuksaltirishda o’rni cheksizdir.

Shu o’rinda shuni aytish joizki, oilani mustahkamlash, farzandlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda bevosita Sharq mutafakkirlari merosidan milliy qadriyatlar sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

UMUMIY XULOSAVA TAVSIYALAR

Boshlang’ichsinfo’quvchilaridakasb-hunartushunchalarinishakllantirish, ularnikasb-hunartanlashgayo’llashbugungikunningdolzarbmuammosihisoblanadi. Yoshavlodnihayotga, mehnatgatayyorlashg’oyatmuhimvazifadir. Shuboisdanyoshlarningkasbtanlashmuammosiumumiyo’rtata’limboshlang’ichsinf laridakattao’rintutadi.

“Mening orzuim”, “Kim bo’lsam ekan”, “Men sevgan kasb”, “Kasbnng yomoni yo’q”, “Kasbim faxrim” degan mavzular har bir yigit va qiz uchun asosisy muammolardan biridir. Ta’lim jarayonida o’quvchilarda kasblar tiplarini mustaqil holda bilish, tanlanayotgan kasbning talablarini o’z shaxsiy sifatleri bilan qiyoslay olish, o’z moyilligi, qoiliyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvogiqiligini, to’g’ri baholash ko’nikmalari shakllanishi lozim. Uslubchining kasb tanlashga yo’llashdagi vazifasi – har bir o’quvchini, uning kasbga va bilimga qiziqishlarini, moyillik, ehtiyojlari, atrof-muhitni, oilaviy ahvolini yaxshi va har tomonlama o’rganishdan iborat bo’lishi kerak.

Bitiruvmalakaviyishivavzusidoirasidao’tkazilganizlanishlarnatijalarigatayanibquy idagixulosalargakelindi:

1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini kasblar olami bilan tanishtirishda qabul qilingan me’yoriy hujjatlar – DTS (Davlat ta’lim standarti), o’quv dasturlari, darsliklar tahlil qilindi, shuningdek, o’quvchilar orasida o’tkazilgan anketa-so’rovnomalar, suhbatlar natijalari Boshlang’ich sinf o’quvchilarini Texnologiya fanlarida kasb-hunarga o’rgatish muammoning dolzarbliigi, hayotiy zaruriyat ekanligi ayrim o’quvchilar tomonidan yetarli darajada anglab yetilmaganligi ma’lum bo’ldi. Bunda maummo sifatida ayrim o’qituvchilar tomonidan faqatgina O’qish, ona tili va matematika darslarining o’zida kasblar haqida tushunchalar berilishi, Texnologiya fanlarida esa, bu mavzuga yetarli darajada to’xtalib o’tilmasligini sabab qilib ko’rsatish mumkin.

2. Amaliyot jarayonida olib borilgan faoliyatim natijasida, Boshlang'ich sinf o'quvchilarini, jumladan, 4-sinf o'quvchilarining Texnologiya fanlarida kasblar olami bilan tanishtirishda kasb tanlashga oid bilimlar, tasavurlar, tashkilotchilik qobiliyatlari yanada boyitildi va kasb tanlashga oid suhbatlar o'tkazildi.

3. Boshlang'ich sinflarda olib borilgan suhbat natijasida o'quvchilar orasida ayrim kasblarga bo'lgan ma'lumotning yetarli darajada emasligini bartaraf etish maqsadida "Kim bo'lsam ekan?" mavzusida seminar-trening o'tkazildi.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Sharq mutafakkirlarining kasb tanlashga oid yaratilgan asarlari haqida tushunchalar berish zarurati borligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalarni berishni joiz deb bildim, o'qituvchi:

- o'quvchilarga "kasb" tushunchasini manosi yoritib berish, ularni kasblarning klassifikatsiyalari bilan tanishtirishi;

- o'quvchilarni "kasbiy qiziqish", "mayllik" tushunchalari bilan tanishtirishi;

- o'quvchilarni kasb tanlashga asosan o'quv va ijtimoiy – mehnat uyushmasiga nisbatan ongli yondoshishga erishishi;

- o'quvchilarga kasb tanlashda o'z salomatligini hisobga olish zarurligini tushuntirish;

- o'quvchilarga "Kasbiy layoqat" tushunchasining mohiyatini ochib berish, kasb tanlashga mulohaza bilan yondashishni shakllantirish;

- qobiliyatlarni kasb tanlashdagi ahamiyatini tushuntirish, umumiy va alohida qobiliyatlar haqida tasavvur hosil qilish;

- har bir o'quvchiga nisbatan kasbini egallashi uchun amaliy yordam ko'rsatishi, unda ijtimoiy – mehnat uyushmasiga ijodiy yondoshishni rivojlantirish;

Yuqoridagi ko'rsatilgan ma'lumotlar, vazifalar, manbalar yosh avlodni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo'llash, kasbni erkin va mustahkam tanlashlari uchun mustaqil zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qo'llash lozim. Bu tizim boshlang'ich ta'lim muassasalariga o'quv-tarbiya jarayonida uzviylikda amalga oshiriladi.

Bizning vazifamiz kelajagimiz bo'lgan o'quvchilarni kasb-hunarga, ijtimoiy-iqtisodiy bilimga ega bo'lgan, o'z kasbi mas'uliyatlarini tushungan holda kasbiga fidoiy bo'lgan yigit-qizlarni tayyorlashdir.

Bitiruv malakaviy ishimizni Abu Nasr Farobiyning quyidagi ibratli gapi bilan yakunlamoqchiman: "Har bir kishi kasb-korini mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak".

ILOVALAR.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasblarga bo'lgan qiziqishini hamda kasb-hunarga oid bilimlarga ega ekanlik darajasini o'rganish uchun

ANKETA-SO'ROVNOMA

Hurmatli o'quvchi! Ushbu anketa so'rovnoma bitiruv malakaviy ishining mazmunini ochib berish maqsadida o'tkazilyapti. Shu bois, savollarga mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javobingiz uchun oldindan rahmat!

1. Kasb-hunar deganda nimani tushunasiz?

2. Qanday kasb turlarini bilasiz?

3. Kelajakda kim bo'lishingiz haqida kasb tanlaganmisiz?

4. Siz o'z xohishingiz bilan ushbu kasbni tanlamoqchimisiz?

5. Qanday noadatiy kasb turlari haqida bilasiz? Turlarini ayting.

6. Maktabda o'tkazilayotgan "Texnologiya" darslaridan mamnunmisiz?


7. "Texnologiya" darslarini qanday tashkil etilishini xohlagan bo'lar edingiz?

8. Texnologiya darslarida har xil ekskursiyalar tashkil etiladimi?

9. Qaysi kasblar haqida ko'proq bilimlarga ega bo'lishni xohlar edingiz?

**ANKETA-SO'ROVNOMA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
BOSHLABG'ICH SINFLARI O'RTASIDA O'TKAZILDI.
(300 nafar o'quvchi ishtirokida, foiz ko'rsatkichi yaxlitlangan holda olingan.)**

ANKETA-SO'ROVNOMA NATIJALARI



SAVOLLAR QUYIDAGI KATEGORIYA ASOSIDA BAHOLANDI:

1-SAVOL	kasb deganda nimani tushunishi bo'yicha	80%
2-SAVOL	kasb-hunar turlarini qay darajada bilishi bo'yicha	60%
3-SAVOL	“Kim bo'lsam ekan?” savoliga javob bera olganlar	50%
4-SAVOL	o'z xohishiga ko'ra kasbni tanlamoqchi bo'lganlar	50%
5-SAVOL	Noodatiy kasb turlarini bilishi	30%
6-SAVOL	“Texnologiya” darslaridan mamnunlik darajasi	30%
7-SAVOL	Savolga javob bera olganlik darajasi	60%
8-SAVOL	Savolga javob bera olganlik darajasi	40%
9-SAVOL	Savolga javob bera olganlik darajasi	70%

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan

“Yoshlarga oida Davlat siyosati” 2016-yil, 16-sentabrdagi O’RQ-361 sonli qonuni matnidan

2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo’sh vaqtini tashkil etish, yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot

texnologiyalaridan foydalanish ko’nikmalarini singdirish, yoshlar o’rtasida kitobxonlikni targ’ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish” masalalariga bag’ishlangan videoslektor yig’ilishidan, 2019-yil, 19-mart.

3. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., “Sharq”, 1997-yil

4.Toshkent Moliya instituti “Kasbiy pedagogika” o’quv-uslubiy majmua 451b.

5.O’zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., “Sharq”, 1997-yil.

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida” gi PF-4947-son farmonidan

7.“Boshlang’ich ta’lim” jurnali, 5-son, 2014-yil, may

8. “Boshlang’ich ta’lim” jurnali, 11-son, 2016-yil, noyabr

9.“Boshlang’ich ta’lim” jurnali 11-son, 2017-yil, noyabr

10.“Boshlang’ich ta’lim” jurnali, 2018-yi, 12-son dekabr

11.Abu Ali Ibn Sino “Donishnoma”. – Dushanbe: “Ifron”, 1990. -388 b.

12.Davlat Ta’lim Standarti (DTS)2017-yil 6-aprel, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 187-qaroridan

13. “Mehnat va uni o’qitish metodikasi” O’quv qo’llanma. R.A.Mavlonova, H.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva.Toshkent-2007

14. Mahmudov T. “Avesto haqida”. –T.: Sharq, 2000.-64 b.

15. “Qur’oni Karim”. Tarjima va izohlar muallifi Alsuddin Mansur. – T, 1997.-21b

16. “Al jome’ as sahih” Imom al-Buxoriy, 3-kitob, 1991.

17. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y, -222 b

18. Al-Xorazmiy “O’gitlar” asaridan.

19.Abu Rayhon Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”.1-jild. –T.: O’rta va oliy maktab, 1986. – 486 b

20. Abu Rayhon Beruniy. “Geodeyziya”.Tanlangan asarlar.3-jild. –T.: Fan, 1982.-

344b

21. Abu Rayhon Beruniy “Minerologiya”. Tanlangan asarlar. M.: FA nashri, 1963. -518b
22. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig”. – T.: Yulduzcha, 1990. – 355 b.
23. Mahmud Koshg’ariy “Devoni lug’atit turk”, 3-jild. –T.: Fan, 1959. -260 b
24. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni. – T.: O’qituvchi. 2001. -215 b
25. Jaloliddin Davoniy. “Jalod shikast” asari. M.: Fan nashri, 1963. -112 b
26. Xusayn Voiz Koshifiy o’zining “Futuvvatnomai Sultoni”. –T.: 1958. 253 b
27. Kasb ta’limi bo’yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish:
nazariya va amaliyot mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
ilmiy
ishlar to’plami. –Qarshi: Nasaf, 2007. – 296 b
28. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun “Texnologiya” darsligi.
I.A.Mannopova, R.A.Mavlonova, N.R.Ibragimova “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent – 2017
29. “Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlashning
pedagogik asoslari” Magistlik dissertatsiyasi, Samarqand - 2016
30. [http:// www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
31. [http:// www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

**Boshlang'ich ta'lim va sport- tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bitiruvchi
bosqich talabasi S.Bektemirovaning «Boshlang'ich ta'lim texnologiya
darslarida oquvchining amaliy faoliyatida kasbga qiziqtirish
texnologiyasi» mavzusidagi BMI ga**

Taqriz

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llar ekanmiz, ularda kasb-hunarlar haqida to'g'ri tasavvur berishimiz kerak. O'quvchilarni qiziqish va kasbga bo'lgan mo-yilliklariga qarab rivojlantiruvchi shakllardan foydalanish o'smirlarda “.

O'quvchilarga kasb so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntirib berish foyda-dan holi emas. Kasb – maxsus tayyorgarlik na tajriba natijasida ma'lum bir so-hada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuasidir.

Dunyoda kasblar, hunarlar ko'p. Odamlar azaldan biror kasb-kor, halol va foydali ish bilan shug'ullanib, daromadlari evaziga hayotiy ehtiyojlarini qondi- rishga, yaxshi yashashga intiladilar. Shu tariqa oila ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmay, jamiyat rivojiga ham o'z hissalarini qo'shadilar. Tajriba-sinov ishlarida boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni turli materiallardan qog'oz va kartondan amaliishga o'rgatish orqali ularning ijodkorligini rivojlantirish ishlari olib borilgan. BMI juda ham yaxshi bayon etilgan va yakunlangan talabga javob beradi. Himoyaga tavsiya etaman.

**Boshlang'ich ta'lim va sport- tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bitiruvchi bosqich
talabasi S.Bektemirovaning «Boshlang'ich ta'lim texnologiya darslarida
oquvchining amaliy faoliyatida kasbga qiziqtirish texnologoyasi» mavzusidagi
BMI ga**

Ilmiy rahbar XULOSASI

Dunyoda kasblar, hunarlar ko'p. Odamlar azaldan biror kasb-kor, halol va foydali ish bilan shug'ullanib, daromadlari evaziga hayotiy ehtiyojlarini qondirishga, yaxshi yashashga intiladilar. Shu tariqa oila ehtiyojlarini ta'minlabgina qolmay, jamiyat rivojiga ham o'z hissalarini qo'shadilar. Milliy uyg'onish, asl milliy an'analar va ma'naviy qadriyatlarning tiklashga qaratilgan davlat siyosatining olib borilishi, o'zbek xalqining ma'naviy qullik tuzoqlaridan ozod bo'lishiga, uning ma'naviy ijodkorlik quvvatlarining barq urib rivojlanishiga, dunyo hamjamiyati ma'naviy madaniyati taraqqiyotida o'ziga xos va munosib o'rin egallashiga olib kelmoqda. O'quvchilarga kasb so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntirib berish foydadan holi emas. Kasb – maxsus tayyorgarlik na tajriba natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuasidir.

Tajriba-sinov ishlarida boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni turli materiallardan qog'oz va kartondan amaliishga o'rgatish orqali ularning ijodkorligini rivojlantirish ishlari olib borilgan. BMI yakunlangan uni himoyaga tavsiya etaman.

Dotsent

G. Abduraimova